

TARJIMANING KELAJAGI – INSONMI YOKI ALGORITM?

Qarshiboyeva Madina

ToshDO`TAU talabasi:

Email pochta: madinakhanguli@gmail.com

Annatsiya: *Ushbu maqolada tarjima jarayonida algoritm ya'ni sun'iy intellektning o'rni, afzalliklari, kamchiliklari yoritiladi. Shu bilan birgalikda sun'iy intellekt inson bilan raqobatbardosh bo'la oladimi degan savolga javob beriladi. Algoritmning tarjima sohasiga kirib kelishi til, madaniyat va texnologiya o'rtasidagi chegaralarni o'zgartirmoqda. Maqolada mashina tarjimasining imkoniyatlari, inson tafakkurining o'rni va kelajakda ularning hamkorligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *algoritm, inson tarjimasi, sun'iy intellekt, tarjima, texnologiya.*

THE FUTURE OF TRANSLATION – HUMAN OR ALGORITHM?

Abstract: *This article explores the role of algorithms and artificial intelligence in the translation process, discussing their main advantages and limitations. It also examines whether artificial intelligence can truly rival human translators. The study analyzes how algorithms are reshaping the boundaries between language, culture, and technology. Furthermore, it highlights the potential of machine translation, the significance of human cognition, and the prospects for their collaboration in the future of translation.*

Keywords: *algorithm, human translation, artificial intelligence, translation, technology.*

Tarjima insoniyat tarixining eng qadimiy faoliyatlaridan biri bo'lib, uning ilk shakllari qullar va asirlar orqali paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Qadimda turli xalqlar o'rtasidagi urushlar natijasida asir tushgan kishilar yangi muhitda o'z tilini bilmaganlarga vositachi sifatida xizmat qilgan. Ular hukmdorlar, savdogarlar yoki harbiylar o'rtasida tillararo muloqot vositachilari bo'lib, ilk tarjimonlar sifatida tarixda iz qoldirganlar. Bu davrda tarjima hozirgi ma'noda yozma emas, og'zaki shaklda amalga oshirilgan. Qullar yoki asirlar ikki tilda so'zlasha olganliklari uchun aloqa o'rnatishda bebaho ahamiyat kasb etganlar. Shunday qilib, tarjimonlik kasbi dastlab insoniyat ehtiyojidan — bir-birini tushunish zaruratidan kelib chiqqan. Keyinchalik davlatlararo aloqalar, diplomatik yozishmalar va diniy marosimlar rivojlanishi bilan tarjima asta-sekin professional faoliyatga aylangan. Qadimgi Misr va Bobil saroylarida maxsus tarjimonlar ishlagan, ular “til biluvchilar” deb atalgan. Shundan so'ng, insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir bosqichida tarjima — xalqlarni, dinlarni va tafakkurlarni birlashtiruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynab kelgan.

Tarjima jarayoni bu faqat so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki madaniyatlarni bir-biriga bog'laydigan ko'prik vazifasini bajaradi. Insoniyat tarixi davomida tarjimonlar doimo xalqlarni, madaniyatlarni va ilmni bog'lovchi kuch sifatida

katta ahamiyat kasb etgan. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalar davrida sun'iy intellekt tarjima jarayonini avtomatlashtirib, tarjima jarayonida bir qator o'zgarishlarga sabachi bo'ldi. Google Translate, DeepL, ChatGPT va bir qator algoritmlar millionlab foydalanuvchilarga aniq va tezkor tarjimalar berib, inson mehnatini yuqori darjada yengillashtirdi. Endi odamlar qisqa vaqt davomida tarjima kerak bo'ladigan bo'lsa zudlik bilan algoritmlarga murojat qilish orqali o'zlariga kerakli bo'lgan tarjimalarni olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tarjimalarni sun'iy intellekt insonlardan tez bajarayotgan bo'lsa, tarjimonlar nima vazifani bajaradi yoki algoritmlar kelajakda tarjimonlar o'rnini qanchalik egallaydi, tarjimaning kelajagi algoritmmi yoki inson kabi bir nechta savollar tug'ilishi tabiiy hol. Ushbu maqolada yuqoridagi savollar tahlil qilinadi.

Bugungi kunda tarjima jarayonini amalga oshirishda algoritmlarning o'zni benihoya katta va hatto ba'zida tasavvur ham qila olmaymiz. Sababi shundaki, sun'iy intellektning bir qancha afzalliklari bor. Eng katta afzalliklari – tezlik va qulaylikdir. Bir necha soniyada butun sahifani tarjima qilish imkoniyati inson uchun katta yordamdir. Biroq algoritmik tarjimaning cheklovlari ham mavjud bo'lib, biz butunlay algoritmlarga suyanib qolmasligimiz kerakligini ta'kidlab turadi. Algoritmlar madaniy realiyalarni, iboralarning yashirin ma'nosini, hazil yoki kinoya kabi nutq unsurlarini to'liq tushuna olmaydi. Algoritmlar uchun tarjima matnidagi so'zlar shunchaki ma'lumot birligi sifatida tushuniladi va shu holicha tarjima qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi “break a leg” iborasi so'zma-so'z “oyog'ingni sindir” degan ma'noni beradi. Ammo bu ibora aslida “Omad tilayman” degan ijobiy niyatni bildiradi. Mashina tarjimasi bu ma'noni to'g'ri tushunmaydi, natijada kulgili yoki noo'rin tarjima yuzaga keladi. Inson tarjimoni esa buni madaniy ibora sifatida tanib, uni o'zbekchaga “Omad tilayman!” tarzida to'g'ri o'giradi. Yoki yana bir misol: o'zbek tilidagi “Ko'ngli tog'dek” iborasini mashina “His heart is like a mountain” deb tarjima qiladi. Inson esa bu iboraning asl ma'nosini – “U juda saxovatli” yoki “U keng fe'l odam” – tarzida anglab, mazmuniy ekvivalentni tanlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan iboralar ma'lum bir fikrga, hissiyotga ega bo'lib, ya'ni ular faqat shunchaki so'zlar emas, balki insonni ichki holatini, emotsiyasini tasvirlab beradi. Bu kabi holatlarni tarjima qilishda tarjimonlarga ishonish to'g'ri variantdir. Shu sababli inson tarjimoni hali ham tarjimaning ma'no qatlamini nazorat qilishda muhim o'rin tutadi.

Inson tarjimoni tilni grammatik jihatdan bilish bilan cheklanmaydi. U madaniyat, tarix, psixologiya, muloqot uslubi va milliy qadriyatlarini ham o'rganadi. Shuning uchun u so'z ortidagi ma'noni tushunib, uni maqsadli auditoriyaga moslashtira oladi. Badiiy asarlar, diniy matnlar, siyosiy nutqlar yoki she'riy tarjimalarda inson tafakkuri o'rnini hech bir algoritm bosa olmaydi. Chunki bu turdagi matnlarda hissiyot, ohang, uslub va estetik tuyg'u muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt so'zlarning mantiqiy bog'lanishini anglay oladi, ammo ularni ruhiy ta'sirga ega so'zlarga aylantira olmaydi. Bundan tashqari, inson tarjimoni mas'uliyat va axloqiy yondashuv bilan ish olib boradi. Masalan, siyosiy yoki huquqiy matnni tarjima qilayotganda, u har bir so'zning oqibatini tushunadi. Algoritm esa bu mas'uliyatni his qila olmaydi. Shu sababli inson tarjimon har doim nazoratchi, tahlilchi va ijodkor rolida qoladi.

Kelajakda texnologiyalar qanchalik takomillashmasin, insonning tafakkur, sezgi va ijodkorlik qobiliyati — tarjimaning yuragi bo'lib qoladi. Shunday ekan, tarjimonlar uchun eng muhim narsa — texnologiyadan qo'rqmaslik, balki uni yordamchi vosita sifatida ishlata bilishdir. Tarjima inson tafakkuri va madaniyatining eng murakkab jarayonlaridan biridir. Tarjimon — bu nafaqat tilni biluvchi, balki madaniyatni his eta oluvchi shaxsdir. Shu bois, tarjima jarayonida inson omili markaziy o'rinni egallaydi. Tarjimonning ishi matnni so'zma-so'z tarjima qilishdan ko'ra chuqurroq jarayondir. L. Venuti yozganidek, "Har bir tarjimon o'z tanlovlari orqali madaniyatlar o'rtasidagi kuch munosabatlarini aks ettiradi" [Venuti. L , 2012: 18]. Demak, tarjimon har doim nafaqat til, balki mafkura va qadriyatlar o'rtasida ham ko'prik vazifasini bajaradi. Bugungi globallashuv davrida esa tarjimonning roli yanada kengaydi. E. Bielsa va S. Bassnett ta'kidlashicha, "Zamonaviy tarjimonlar endi faqat til bilan emas, balki madaniyat, siyosat va texnologiya bilan ham shug'ullanadilar" [E. Bielsa., S. Bassnett , 2009: 7–10]. Shunday ekan, inson omili tarjimaning sifatini, to'g'riligini va madaniy mosligini belgilovchi asosiy kuch bo'lib qoladi.

Kelajakda sun'iy intellekt tarjimonlarni o'rnini egallay olmaydi, balki ularning raqamli hamkori bo'lib qoladi. Tarjimon esa texnologiyadan foydalanishni bilgan, lingvistik tahlilni chuqur o'rgangan mutaxassis sifatida yanada qadrlanadi.

L. Bowker ham inson tafakkurining ustunligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Tarjima — bu san'at va fan uyg'unligidir; mashina fanni egallaydi, ammo san'atni emas" [L. Bowker , 2020: 92]. Bu fikr tarjima jarayonining faqat algoritm orqali to'liq amalga oshmaydi, balki inson hissi zarurligini isbotlaydi.

Tarjima insoniyat madaniyatining ajralmas qismi ekanligi ma'lum. Asrlar davomida u xalqlarni, g'oyalarni va tafakkurlarni birlashtirib kelgan. Bugungi kunda esa sun'iy intellekt texnologiyalari tarjima jarayonini yangicha bosqichga olib chiqdi. Mashina tarjimasi tezlik va hajm jihatdan inson imkoniyatlaridan ustun bo'lsa-da, u hali ham inson tafakkuri, ijodi va madaniy sezgirligini to'liq almashtira olmaydi. Shunday ekan, zamonaviy tarjimaning kelajagi "insonmi yoki algoritm?" degan savolga aniq javob — ikkalasi birgalikdadir. Tarjimon o'z bilim va sezgilarini qo'llagan holda, sun'iy intellekt dan samarali foydalanishni o'rganishi kerak. Chunki algoritm tezlikni, inson esa aniqlik va chuqurlikni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt vositalari tarjimon uchun raqib emas, balki yordamchi hamkordir. Inson va texnologiya o'zaro hamkorlikda ishlaganda, tarjima nafaqat tez, balki mazmunan boy va madaniy jihatdan mos bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, tarjimaning kelajagi insonni inkor etmaydi — aksincha, uni yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. Inson va sun'iy intellekt uyg'unligi XXI asr tarjimashunosligining eng muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Tarjimaning kelajagi deya inson va sun'iy intellektning hamkorlikdagi ishini ayta olamiz. Tarjimon kasbi butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki yangi bosqichga ko'tariladi – ya'ni inson va algoritm birgalikda ishlaydigan intellektual muhit shakllanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tarjimaning kelajagi nafaqat texnologiyada, balki inson tafakkuri va texnologiya uyg'unligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Venuti, L. (2012). *The Translator's Invisibility: A History of Translation* (2nd ed.). Routledge.
2. Bielsa, E., & Bassnett, S. (2009). *Translation in Global News*. Routledge.
3. Bowker, L. (2020). *Machine Translation and Globalization: Challenges and Opportunities*. Springer.
4. Mamarasulova, Gulnoz, and Ilyosbek Safarov. "THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LEARNING IN TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE." *Nordic_Press* 8.0008 (2025).
5. Nurmatova, G. (2022). O'zbek tilida mashina tarjiması muammolari. *Cyberleninka*.
6. Бархударов, Л. С. (2015). *Язык и перевод*. Москва: ЛКИ.
7. Castilho, S. et al. (2017). Is neural machine translation the future? *Translation Quality Journal*.
8. Комиссаров, В. Н. (2013). *Современное переводоведение*. Москва: ЭТС.